



## BADIIY ASAR MATNIDAGI ONOMASTIK BIRLIK LARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Hamroyeva Maftuna Rasulovna

BuxDU o`qituvchisi

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning sa`y-harakatlari bilan ajodolarimiz tomonidan yaratilgan ma`naviy merosni o`rganishga keng imkoniyatlar yaratildi, milliy-ma`naviy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi.

Hozirgi kunda tilshunosligimizda o`zbek tilini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, tilimizning turkona tabiatini ochib berishga yo`naltirilgan lingvistik muammolarga, xususan, antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy tamoyillari, antroponimlarni qardosh va noqardosh tillar bilan qiyosiy o`rganish, antroponimlarni davrlashtirish tamoyillari, o`zbek tarixiy antroponimiyasi, antroponimlarning turli uslublarida, ayniqsa, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, antroponimlarning izohli, imloviy transkripsiya lug`atlarini tuzishning leksikografik talab va tamoyillari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o`rganish, o`zbek tili antroponimikasini yaratish kabi masalalarga alohida e`tibor berila boshlandi.

Antroponimning matndagi uslubiy qiymati, bajarayotgan vazifasi asar g`oyasini ochib berishdagi xizmatini aniqlash orqali shu asarning lingvostilistik xususiyati, asar muallifining individual uslubi haqida so`zlash mumkin bo`ladi.

Masalan, atoqli o`zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning ijodida antroponimlarning qo`llanilishining o`ziga xos, boshqa ijodkorlar uslubiga o`xshamagan jihatlarini ko`rish mumkin, shu bilan birgalikda mushtaraklik xususiyatlari ham ahamiyatlidir. Shu o`rinda adib ijodidan quyidagi hikoya tahlili o`rinli:

“Tabassum” hikoyasi bosh qahramoniga Jalil ismini qo`yadi. Jalil- yuksak, ulug`vor, dongdor, mashhur degan ma`noni bildiradi. Bu bilan ijodkor qahramonining insoniy fazilatlari yuksak, ulug`vor kishi ekanligiga ishora qiladi. Qahramondagi bu sifatlar hikoyadagi quyidagi o`rnlada o`z aksini topgan: “...Jalil aka o`sha qilgan xizmatlari haqqiga ittifoqo bitta ham nishon taqmadi. Nishon qayda, bir parcha yorliq ham olmadi. Lekin bu narsalarni orzu qilmagan ham edi: u qilishi lozim degan ishni qilar, aksini qilmas, yo`q o`zligiga qarshi bormas, bunga kuchi yetmas edi...” Bu obrazdagagi o`zlikni anglash, vijdoniylik, sodiqlik kabi sifatlar qahramonning ismiga munosibligini tasdiqlaydi.

Asardagi yana bir obrazga ijodkor Mo`min nomini tanlagan. Mo`min ismi dinga sodiligini til va iqror bilan hamda qalban tasdiqlovchi, imonli, xudojo`y. Va

yana Mo`min ismi Allohnning sifatlaridan biri bo`lib, bandalarini asrovchi, ular xavfsizligini ta`minlovchi demakdir. Hikoyada Mo`min otaning qanday holda bo`lmasin imon-e`tiqodi mustahkam kishi ekanligini ochib berish uchun shu ism tanlangan. Haqiqatan, uning e`tiqodi shunchalik mustahkamki, davr talabi bilan qilayotgan ishi noto`g`ri bo`lsada, uni to`g`ri deb hisoblaydi. Buni quyidagi o`rinlarda ko`rish mumkin: «Ilk qishloqqa yaqinlashganda , Jalilga qarab:

-Ko`rdingmi, bosmachini ushslash qanday bo`ladi?- dedi.

Jalil garangsib:

-Siz ushlaganingiz yo`q,-dedi.

Mo`min taqa to`xtadi.

-Esa senmi?

-Bog`lashga bog`ladingiz.

Shunda Quyun qo`rboshi o`girildi.

-Bola ekansan-ku, Jalil, -dedi.-Buni men bilaman... Bu seniyam otib qo`yishi mumkin».

Hikoyada yozuvchi Jalil otaning o`g`liga Shokir ismini qo`yadi. Bu ism ma`nosi quyidagicha: Ollohga shukr qiluvchi, tangridan minnatdormiz, farzand bergeniga shukr qilamiz. Ijodkorning bu qahramonni Shokir deb ataganining sababi, uning Jalil otaga yakka-yu yagona farzand ekanligidandir.

Shukur Xolmirzayev shu obrazning qiziga Sadaf degan nomni qo`ygan. Bilamizki, har bir ota-onas uchun farzand eng aziz va qimmatlidir. Mana shuning uchun ham ijodkor unga Sadaf ismini qo`ygan. Sadaf ismi esa adabiyotlarda quyidagicha ta`riflangan: sadafdek tish bilan tug`ilgan bola; sadafdek bebaho, qimmatli qiz.

«Bir kuni sevimli nevarasi - yolg`iz o`g`lining yagona qizi Sadafdan so`radi».

Quyun qo`rboshi – bu hikoyadagi epizodik obrazlardan biri. Quyun ismi qattiq quyun payti tug`ulgan bolaga qo`yiladi. Bizning fikrimizcha, ijodkor qahramonning kuchli ekanligiga ishora sifatida unga shu ismni mos ko`rgan va bu bilan ism jismga mosligini isbotlagan.

«Kechasi allamahal. Jalil bezovta. Qo`rqadi. Quyundan qo`rqadi. U ho`kizdek kuchli».

Mana shunday epizodik obrazlardan yana biri Orzixo`jadir. Bu ism ikki qismdan iborat. Birinchi qism orzu, umid qilib yurib erishilgan bolaga nisbatan qo`yiladi, ikkinchi qism esa uning xo`jalardan chiqqanligiga yoki boyning o`g`li ekanligiga ishora sifatida qo`llaniladi. Bundan tashqari, chaqaloqqa beriluvchi bir qator nomlar islom dinining muqaddas, xosiyatl oyalar, kunlar haqidagi g`oyalarini ifoda qiluvchi so`zlardan yasalgan: Sayid, Xo`ja, Hoji, Juma kabi. Bu so`zlar chaqaloqqa yaxshilik va baxt keltiradi deb ishonilgan degan qarashlar ham bor.

Hikoyadagi xo`ja esa bu qahramonning xo`jalardan chiqqanligiga ishora sifatida qo`llangan. Ya`ni buni quyidagi o`rinlarda ko`rish mumkin:

«–Rahmatli komandirimiz o`zi xo`jalardan chiqqan edi... Xo`jasan deb qamashgan...»

Antropomimlar asarning hayotiyligini ta`minlovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Ulardan foydalanish yozuvchi ijodidagi o`ziga xos ideal uslub sanaladi. Shuningdek, antropomimlarni tilning turli aspektlarida tahlil qilish mumkin. Demak, til juda serqirra hodisa. Shuning uchun ham tilni xalq hayoti bilan bog`liqlikda o`rganish lozim. Buning uchun bizga birinchi navbatda badiiy asarlar yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчиллик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.
2. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри, Тошкент, 2007.
3. Холмирзаев Ш. Сайланма 2-жилд. Т.: Шарқ 2005
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I-II том.\
5. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story "Devona"). Middle European Scientific Bulletin, 8.
6. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. Journal of Contemporary.
7. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). Middle European Scientific Bulletin, 10.
8. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPOONYMS. Chief Editor.
9. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKALAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. БАРQAРОРЛИК ВА ЯТАКЧИ ТАДQИQOTЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 391-398.
10. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).



**KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARINI IJODIY TAFAKKURINI  
 RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI**

**Mo'yдинова Шоҳсанам Донiyorbek qizi**

*Andijon davlat Pedagogika instituti*

*Pedagogika-psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning psixologik-pedagogik tekshirish, ushbu muxitga moslashtirish va qo`llab quvvatlash o`quvchilarning tafakkurini rivojlanТИRISH va aqliy saloxiyatini oshirishni muxim tamoyilaridan biri bo`lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maqsadi: bolaning ruxiy rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funktsiyalarining shakllanish xususiyatlarini urganish, ruhiy rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir.

**Аннотация:** Психолого-педагогическое обследование младших школьников, адаптация и поддержка в этой среде является одним из важных принципов развития мышления и интеллектуального потенциала учащихся. Основной целью психолого-педагогического обследования ребенка первого года жизни является определение уровня психического развития ребенка, изучение особенностей сформированности психических функций, определение характера и степени выраженности нарушений (дефектов) психической деятельности.

**Abstract:** Psychological and pedagogical examination of primary school students, adaptation and support to this environment is one of the important principles of developing students' thinking and intellectual capacity. The main purpose of psychological and pedagogical examination of the first-year child is to determine the level of mental development of the child, to study the characteristics of the formation of mental functions, to determine the nature and extent of disorders (defects) in mental development.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, boshlang'ich sinf o'quvchilari, talim jarayoni, mashg'ulot jarayoni, predmetlar.

**Ключевые слова:** мышление, младшие школьники, учебный процесс, учебный процесс, предметы.

**Keywords:** thinking, elementary school students, learning process, learning process, subjects.

### KIRISH

O'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlanТИRISH muammolari bo'yicha ham do'stlik mamlakatlarida bir qancha tadqiqot ishlari bajarilgan. P.A.Bachelor, L.M.Vekker, R.Nemov, A.Luriya, L.Vygotskiy, S.Rubinshteyn, V.SHadrikov, L.Venger, V.Aseev, K.Abulxanskaya-Slavskaya, D.Lyusin, Ye.Xlystova, Ye.Ilyin, B.Ananьев, Ye.Stepanova, B.Velichkovskiyalar tafakkurning kognitiv omillar bilan